

**TABIATDAN FOYDALANISHDA EKOLOGIK YONDASHUV****Qurolova Feruzaxon Rasul qizi***Farg'ona davlat universiteti**Ekologiya yo'nalishi talabasi***Eliboyeva Mohlaroyim Dilshodjon qizi***Farg'ona davlat universiteti**Ekologiya yo'nalishi talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola tabiat va jamiyat o'rtasidagi zaro munosabatlarni barqarorlashtirish, yuzaga kelayotgan mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda ekologik yondashish bilan birgalikda undan samarali foydalanish haqida.

**Kalit so'zlar:** Biosfera, atmosfera, quyosh paneli, kobonat angidrid, issiqxona effekti, ekologik madaniyat.

**Аннотация:** В статье речь идет о стабилизации взаимодействия природы и общества, эффективном использовании экологического подхода в решении региональных экологических проблем.

**Ключевые слова:** Биосфера, атмосфера, солнечная батарея, углекислый газ, парниковый эффект, экологическая культура.

**Abstract:** This article is about stabilization of interaction between nature and society, effective use of ecological approach in solving regional environmental problems.

**Key words:** Biosphere, atmosphere, solar panel, carbon dioxide, greenhouse effect, ecological culture.

Insoniyat yer yuzida paydo bo'lgandan boshlab uning biosfera bilan munosabatlari boshlangan. Insoniyat biosferaning bir qismi bo'lib, uning qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatadi. Ammo insonlarning ehtiyojlari orta borishi bilan, ya'ni insonlarni o'z manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yishi natijasida biosferga bo'lgan nooqilona ta'sirlar ko'lami ortib ketdi. Endi esa bu nooqilona ta'sirlarning oldini olish bizning oldimizda turgan dolzarb masaladir. Buning uchun birinchi navbatda yashil o'simliklar, yashil o'rmonlar sonini ko'paytirish, chiqindilarni qayta ishlash, unumsiz tuproqlardan foydalanish, ya'ni unumsiz tuproq mavjud bo'lgan hududlarda chiqindilarni qayta ishlovchi zavod va korxonalarini tashkil etish, shuning bilan birgalikda ushbu hududlarda quyoshdan energiya oluvchi panellarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalarni bajarish bilan birgalikda aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirish ahamiyatga molikdir. Bundan tashqari bugungi kunning global ekologik masalalaridan biri iqlim o'zgarishlaridir. Iqlim o'zgarishlari nafaqat tabiatga balki insoniyatga va shuning bilan birgalikda butun tirik jonzoatlarga o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan biri atmosfera havosining global miqyosda isishi hisoblanadi. Atmosfera havosiga



chiqarilayotgan jami chiqindilarning 90 foizi gaz moddalari bo'lib, ular atmosfera havosining keskin isishiga olib keladi. U moddalarga quyidagilar kiradi: karbonat anhidrid, vodorod sulfid, is gazi, xlor, ftor, amiak oltingugurt birikmalari, fosfor birikmalari va azot oksidlaridir. Shuning bilan birglikda ular atmosfera havosida "issiqxona effekti"ni hosil qiladi.

Issiqxona effekti--- atmosfera havosiga karbonat anhidrid moddalarining ko'p moqdorda chiqarilishi natijada kelib chiqadi, ya'ni transport va sanoat korxonlaridan chiqadigan karbonat anhidrid va turli xil gazlarning chiqarilishi natijasida hosil bo'ladi.

### **Ekologiya faning vazifalari**

Ekologlarning kelajakdagi amaliy vazifalari inson ehtiyojini yanada to'laroq qondirishga qaratilgan holda antropogen betsenozlarni qayta ko'rib chiqish va barqarorligini oshirishga qaratilishi kerak. "Inson va biosfera" deb atalgan yirik xalqaro dasturda keyingi yillarda ekologiya sohasida hamda insonni o'rab turgan atrof-muhitni tadqiq qilishning aniq ilmiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan:

- Hayot jarayoni qonuniyatlarini o'rganish, shuningdek insonning tabiiy tizimlarga va biosferaga bo'lgan ta'sirini bir butun holda o'rganish.
- Biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiatdagi o'zgarishlarni oldindan bilib olish va biosferada kuzatilayotgan jarayonlarni boshqarish va nihoyat insonning yashash muhitini saqlash.
- Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi hujjatlarni takomillashtirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda ular faolligini kuchaytirish.
- Sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jamoatchilik ekologik nazorati tizimini rivojlantirish, jamoatchi inspektorlarni o'qitish va ular malakasini oshirish, chiqindilar bilan bog'liq muammolarni hal etish.

Shuningdek, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, soha qonunchiligini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining bu boradagi madaniyatini yuksaltirish bo'yicha harakatlar dasturi tasdiqlandi.

### **Xulosa**

Tabiat o'ziga xos ekologik muvozanatga ega va agar bu gazlarning kontsentratsiyasi tabiiy bo'lsa, o'z-o'zidan ular o'z kontsentratsiyasini muvozanatlashi va uni doimo barqaror saqlashi mumkin. Biroq, inson faoliyati va atmosferaga ortiqcha chiqindilar bilan, so'nggi o'n yilliklarda bunga sabab bo'ldi tabiat odamlarning yo'l qo'ygan xatolarini o'zi tuzatishga qodir emas. Shuningdek Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, soha qonunchiligini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining bu boradagi madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ishlar olib borish zarurdir.





**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Халматова, Ш., & Махсудова, Г. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 356-362.

2. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1365>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

3. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, July). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY. In *Конференции*.

4. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.

5. Akhmedova, D. M., & Maxsudova, M. G. (2021). The role of moisture as an ecological factor in growth of cotton plants. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1093-1098.

6. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). Morphology of the pollen of some cotton species and hybrids. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 84-87.

7. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 159-165.

8. To'lanovna, A. M., & Maxammadjonovna, M. G. (2021). EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA XORIJIY TAJRIBA.